

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Amudaryo daryosi havzasi va deltasi suvli botqoq yerlari bioxilmaxilligi va ekotizimining hozirgi holatini baholash 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: Amudaryoning Xorazm va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarida bioxilmaxillik darajasi, sharoitlari va maydoni, uzoq yillik va hozirgi, istiqboldagi holatlari tahlil etiladi. Mazkur yo‘nalishda jahonning ilg‘or natijalarga ega davlatlari yutuqlarini Respublikamiz sharoitiga moslashtirish va qo‘llash bo‘yicha tashkiliy va ilmiy, amaliy elektron platformalar ishlab chiqiladi; Amudaryo havzasi quyi qismi va deltasida bioxilmaxillikni oshirish chora-tadbirlari, bioxilmaxillik ko‘rsatkichlari va ekologik holatni ta‘minlash va rivojlantirish bo‘yicha umummilliy mezonlar va tartiblar ishlab chiqiladi; Amudaryo havzasi quyi qismi va deltasida suv resurslari, flora va fauna, ekologik jarayonlarni monitoring qilish, oldindan bashorat qilish va ustuvor rejalarni belgilash bo‘yicha innovatsion texnologiyalar ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Suv xo‘jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Suv xo‘jaligi vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Suv xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.